

Date: 5th March-2025

RESPUBLIKA IMKONIYATI CHEKLANGAN SHAXSLAR UCHUN
IXTISOSLASHTIRILGAN MAXSUS TEXNIKUMIDA TA'LIM OLAYOTGAN
O'QUVCHILARNING TIKUVCHILIK KASBIGA BO'LGAN QIZIQISHLARI

Raxmonova Xolida Shodiyevna

Respublika imkoniyati cheklangan shaxslar uchun
ixtisoslashtirilgan maxsus texnikum ishlab chiqarish ta'limi ustasi

Annotatsiya: Insoniyat tug'ilgandan boshlab, hamisha kiyim – kechakka ehtiyoji bo'lganligi sababli tikuvchilik hunari dolzarb hisoblanadi. Shuning uchun ota-onalar qiz bola kasb tanlaganda tikuvchilik yo'nalishini tanlashini xohlaydilar, tikuvchilik yo'nalishi qiz bola uchun juda yaxshi kasb hisoblanadi. Ushbu maqola o'quvchilarni tikuvchilik hunarini o'rganishga jalb qilish va hayotga tayyorlashga bag'ishlangan.

Kalit so'zlar: tikuvchilik, kiyim, bichish - tikish, hunar, tikuv mashinasi.

Kiyimlarni tikish kasbi juda qadimiy va zaruriy mehnat turi hisoblanadi. Kiyimning asosiy vazifasi odam tanasini atrof-muhitning turli nomaqbul ta'sirlaridan muhofaza qilish va bezatish hisoblanadi. Kiyimning paydo bo'lganiga juda ko'p asrlar bo'lgan. Tikuvchilik o'zbek xalqining eng qadimdan o'rganib kelgan hunarlaridan biriga aylandi. O'quvchilarga hunar o'rgatish va o'rganishning fazilati haqida allomalarimiz o'z asarlarida juda ko'p yozganlar. Masalan, Abdurahmon Jomiy yoshlarga murojaat qilib shunday deganedi: *Oltin topmagin-u o'rgangil hunar, Hunarning oldida pastdir oltin-zar.* Hunar ado bo'lmas boylikdir. U albatta yoshlikdan o'rgatiladi. Donolar yoshlarga bu borada nasihatlar berganlar. Bir donishmand farzandlariga shunday nasihat qilgan: "Aziz farzandlarim, hunar o'rganinglar, zeroki, mol-dunyoga e'tiqod yo'q va oltin kumush safarda xatarlidir. Qaroqchilar o'g'irlab ketadi. Ammo hunar qaynar buloq, tugamas davlatdir, agar hunarmand molidan mahrum bo'lsa, qayg'usi yo'qdir, chunki hunarning o'zi davlatdir. Hunarmand qayerga borsa qadrlanadi va u yning to'ridan joy oladi. Hunarsiz odam esa, hamisha mashaqqat chekadi, tilanchilik qiladi".

Yurtimizdagi texnikumlarda bichish-tikishni o'rgatishga, ya'ni tikuvchilik hunariga katta e'tibor berilmoqda. Bichish-tikish darslari va to'garaklarining ishini to'g'ri tashkil etish yoshlarimizning bo'sh vaqtini unumli va mazmunli o'tkazish, ularni kasbga yo'llash, ijtimoiy-foydali mehnat bilan shug'ullanish orqali o'z mehnatidan bahramand bo'lish imkoniyatini yaratadi. O'quv amaliyoti jarayonida dastlab gazlama bo'laklarida mayda detallarni, uzellarni tayyorlaydilar, so'ngra ularni buyumda qo'llash orqali turli buyumlar yaratadilar. Dars jarayonida bolalar, ayollar, erkaklar yengil kiyimlarini tikish bo'yicha ko'nikma, malakalarga ega bo'ladilar. O'quvchilar hunar o'rganishdan tashqari, amaliyot darslarida jamoa bo'lib ishlashadi, jamoa bo'lib ishlash jarayonida bir-biriga yordam berish, ish o'rinlarini almashib, maslahatlashib bajarishlariga to'g'ri keladi. Dars jarayonida o'quvchilar o'zaro do'stlik, bir-biriga yordam berish, bo'ysunish, javobgarlik, talabchanlik va ish yuzasidan olib boriladigan tanqidiy munosabatlarga kirishadilar. Ishlab chiqarish ta'limi ustalari bu munosabatlarning kamol topishini diqqat bilan kuzatishi va



Date: 5th March-2025

ulami to'g'ri yo'naltirib turishi kerak. Tikuvchilik amaliyoti darslarida ayrim hollarda o'quvchilarga o'z ishini baholashni taklif etadi. Bu esa o'quvchida tayyorlangan buyumni sinchiklab tekshirish, sifat ko'rsatkichiga amal qilish, o'z-o'zini tanqidiy baholash hissining shakllanishiga yordam beradi.

O'qituvchi talablarini bajarish natijasida o'quvchilar qabul qilingan qoidalar, ish usullarini aniq, ongli bajarishga asta-sekin ko'nikadilar. Ular berilgan ish maromini saqlashga, ish o'rnini namunali tutishga, tikuv mashinasi, dazmol va tikuvchilik asbob-uskunalarini ehtiyot qilishga odatlanadilar. O'quvchilarga mehnat ta'limi berishda turmushga tayyorlashning muhim sharti — intizomni yo'lga qo'yish orqali erishiladi. O'quvchilarni buyumlarni bichish vaqtida gazlamalarini tejab sarflashga, tikuvchilik asbob-uskunalarini va ish kiyimlarni ehtiyot qilishga, o'z ishini sidqidildan bajarishga, mehnatni sevishga o'rgatish orqali mehnat tarbiyasi shakllanadi.

Kiyim tikishda ixtiyoriylikni qo'llash orqali o'quvchilarni ishlarini san'at darajasiga ko'tarish imkoniyatlari yaratiladi. O'quvchilarning bajargan ishlaridan ko'rgazmalar tashkil etish-buhunarni keng ommaga targ'ib qilish, o'z navbatida, tikuvchilik hunariga bo'lgan qiziqishni oshiradi, keng omma diqqatini jalbetish, tikuvchilik hunariga qiziquvchilarni ko'paytirish imkoniyatlarini yaratadi.

Tikuvchilik yo'nalishida tahsil olayotgan o'quvchilarning bajargan ishlaridan ko'rgazmalar tashkil etish — bu hunarni keng ommaga targ'ib qilish, o'z navbatida, tikuvchilik kasbga bo'lgan e'tiborni, bichish-tikish hunariga bo'lgan qiziqishni oshiradi, keng omma diqqatini jalb etish, bu kasbga qiziquvchilarni ko'paytirish imkoniyatlarini yaratadi.

Insoniyat tug'ilgandan boshlab, hamisha kiyim – kechakka ehtiyoji bo'lganligi sababli tikuvchilik hunari dolzarb hisoblanadi. Shuning uchun ota-onalar qiz bola kasb tanlaganda tikuvchilik yo'nalishini tanlashini xohlaydilar, tikuvchilik yo'nalishi qiz bola uchun juda yaxshi kasb hisoblanadi. Tikuvchilik yo'nalishiga yo'naltirilgan juda ko'p kasb-hunar texnikumlari mavjud, shuningdek, Respublika imkoniyati cheklangan shaxslar uchun ixtisoslashtirilgan maxsus texnikumida ham tikuvchilik yo'nalishi tashkil etilgan. Bu texnikumda o'quvchilar shu sohani o'rganishi uchun davlat standartiga mos va zamonaviy tikuv mashinalari bilan jihozlangan o'quv amaliyot xonalari mavjud. O'quv amaliyoti jarayonida o'quvchilar tajribali ishlab chiqarish ta'limi ustalaridan tikuvchilik sirlarini o'rganishadi. O'quvchilar bu bilimlarini tikuvchilik korxonalariga borganda ishlab chiqarish va diplom oldi amaliyotlari jara-yonida qo'llab, ko'nikma malakalarini oshirishadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Shavkat Mirziyoev "Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'yat bilan davometib, yangi bosqichga ko'taramiz" Toshkent - "O'zbekiston" -2018 y
2. Q.M. Abdullayeva, X.SH. Boboxonova, M.M. Ismoilova, N.S. Gaipova- Bichish-tikishni o'rgatish metodikasi Toshkent - «Ilmziyo» - 2016
3. R.I. Yegorova. Bichish-tikishni o'rganing.-Toshkent, «O'qituvchi», 1991.



Date: 5th March-2025

4.T.M. Poshshaxo 'jayeve. Xizmat ko'rsatish mehnati. 5 - 7 – sinflar uchun o'quv qo'llanma. - Toshkent, «O'qituvchi», 1997.



International Conferences
Open Access | Scientific Online | Conference Proceedings

